

O'QITUVCHILARDA KASBIY SO'NISH JARAYONLARINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Otaxonova O'g'iloy Alibekjon qizi

Andijon viloyati Andijon tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada shaxsning kasbiga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur xolatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy so'nish, kasbiy zerikish, kasbidan bezish, kasbiy o'zlik, kasbiy "men"lik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, kasbiy layoqat.

KIRISH

Pedagoglarni kasbiy tayyorlashga nazariy, amaliy, uslubiy yondashuv, shuningdek, maxsus tayyorgarlikning shart-sharoitlari va usullarini takomillashtirish, belgilash pedagoglarning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar va qobiliyat mustaqil ishlash zamonamizning asosiy muammolaridir. Shuning uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash muhim. Yangi psixodiagnostika usullarini joriy yetish, oshirish ilm-fanni rivojlantirish, ilg'or innovatsiyalarni rivojlantirishda talaba va yoshlarning faolligi, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Jamiyatda o'zligini anglagan shaxs borki, u shu jamiyat a'zolariga manfaati tegadigan biror bir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lishi tabiiy hol xisoblanadi. Xalqimizni kasb – xunarni yomoni bo'lmaydi, degan maqolidan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki kasb – hunari orqali xalq e'tiboriga sazovor bo'lganlar haqida tariximizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'z kasbini mohir ustasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxslar qatorida kasbidan zerikish hamda kasbidan sovish xolatlari ham uchrab turishi so'ngi vaqtarda ko'plab ijtimoiy fan vakillarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Umumiyligi psixologiyani asosiy tarmoqlaridan biri xisoblanmish mehnat psixologiyasi yo'nalishida shaxs o'z faoliyatiga nisbatan ishtiyoqining so'nish jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, turli yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxsda kasbiy faoliyatiga nisbatan yuzaga keladigan ishtiyoqni sustlashishi yoki "so'nishi" – jaxon psixologik adabiyotlarida "burnout" holati deb nomlanadi va bu o'zbek tilida esa "so'nish" degan ma'noni anglatadi. Hozirgi vaqtida shaxsni faoliyatini tahlil etuvchi fanlarda kasbiy so'nish va uning tuzilmasining mohiyati bo'yicha yagona

nuqtai nazar mavjud emas. So‘nggi ma’lumotlarga tayangan holda, “psixik kuyish” deganda emotsional xolatni kasblarda kuzatiladigan psixo-fiziologik, hissiy va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishdagi qoloqlik holati tushuniladi.

Ijtimoiy psixologiya tadqiqotlari asosida quyidagi soha vakillari kasbiy so‘nish jarayoni bo‘yicha “xavf” guruhiga taaluqli hisoblanadilar: pedagoglar, psixologlar, tarbiyachilar, shifokorlar, tez-tez ish safarlariga chiqadigan, ijtimoiy va madaniy yo‘nalishdagi xizmat ko‘rsatish sohasi vakillari hamda bank xodimlari.

Mazkur xavf guruxida yetakchilik pedagog va psixologlarga tegishli bo‘lib, ulardagи kasbiy so‘nish ortiqcha aqliy faoliyat bilan bir qatorda o‘z faoliyatlaridan qoniqmasliklari natijasida kasbiy faoliyatlariga nisbatan quyidagicha salbiy yondashuvlar yuzaga keladi:

- o‘z faoliyatiga nisbatan yuqori emotsional yondoshish;
- jamoada o‘z o‘rnini topa olmaslik hissi;
- muntazam faollik talab etilishi, yetarli dam olmaslik;
- ish joyidagi salbiy ijtimoiy sharoit va psixologik holat;
- kun davomidagi yuklamalarning ko‘pligi;
- kechiktirilgan natija uchun cheklangan vaqt;
- shaxsiy emotsional holatni boshqara olmaslik;
- sarflangan mehnat uchun mos kelmaydigan natijaning bo‘lishi;
- hamkasblar, ma’muriyat, qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri muloqot yo‘lini tanlash ko‘nikmalarining yo‘qligi;
- pedagogik faoliyatni tashkil qilishning to‘g‘ri boshqarilmasligi: yuklama, dars jadvali, ma’naviy va moddiy qo‘llab quvvatlanmaslik;
- ma’lumotlarning haddan ortiq ko‘pligi; - qayta – qayta nazorat va tekshiruvlar.

Yuqorida keltirilgan omillar ustunlik qilishi shaxsning o‘z faoliyatidan bezish yoki zerikish, stress xolatiga tushib qolishiga ta’sir etishi tabiiy xol xisoblanadi. [3] Mazkur xolatda aksari mutaxassislar jizzaki bo‘lib ziddiyatli vaziyaga moyilliklari ortib ketadi. Ana shunday holatlarni sababini tashxis qilib aniq va muvaffaqiyatli psixologik maslahat tashkil etish uchun kasbiy so‘nish va kasbiy mutanosiblikdan uzoqlashishni o‘rganishning asosiy omillariga e’tibor qaratish lozim. Bular:

- Bilim berishni takomillashtirishda yangi g‘oyalarni kiritavermaslik.
- Pedagogik faoliyatga ko‘r-ko‘rona texnologiyalarni joriy etavermaslik.
- Shaxsning o‘z kasbiga nisbatan mutanosibligini baholash.
- Jamoaning psixologik iqlimining ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil etish. - Pedagog shaxsining yashirin imkoniyatlarini ochish.
- Har bir pedagog kompetensiyasining psixologik asoslarini o‘rganish orqali o‘quvchilar bilimining samaradorligini oshirish.

- Ochiq darslarning kam tashkil etilishi va unda psixologik analizning mavjud emasligi.

Quyida kasbiy so‘nishning asosiy omillaridan hisoblanmish ikki olmil haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Aynan quyidagi ikki sabab yosh mutaxassislarda ko‘proq uchrashi so‘ngi vaqtarda qayd etib borilmoqda. Shu sababli tajribali mutaxassislar o‘zlarining tajribalaridan kelib chiqqan xolda to‘g‘ri maslahatlar berishlari lozim bo‘ladi.

Kasbiy so‘nish va kasbiy mutanosiblikdan uzoqlashishning asosiy sabablari:

1. Individual sabablar:

- A) o‘z ustida ishlashdan to‘xtab qolish;
- B) fanga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirmaslik;
- V) doimiy bir xil metodik uslubga yopishib olish;
- G) o‘z faoliyatidan qoniqmaslik;
- D) o‘ziga bino qo‘yib, boshqalarni mensimaslik;
- Ye) moddiy manfaatdorlikdan qoniqmaslik; Yo) hamkasblarining darslariga qatnashmasligi.

2. Ijtimoiy-psixologik omillar:

- A) atrofdagilarning diqqat e’tiboridan qolish;
- B) atrofdagilarning nazoratidan chetda qolish;
- V) faoliyatiga mos rag‘batlantirilmaslik;
- G) o‘z sohasi mutaxassislaridan uzoqlashish;
- D) kamchiliklarini rahbariyat tomonidan tez-tez eslatib turilishi.

Yosh mutaxassislarda kasbiy so‘nish yoki kasbdan uzoqlashishni sezgan tajribali hamkasblar va psixolog mutaxassis quyidagilarga e’tiborini qaratish maqsadga muvofiq xisoblanadi. [4] Pedagogik faoliyatda kasbiy so‘nishning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Muntazam pedagog malakasini oshirib borish.
2. Muntazam psixologik testlar orqali shaxsini baholab borish.
3. Turli trening, davra suhbatlari hamda psixologik konsultatsiyalar tashkil etish.
4. Fan sohasida seminarlar tashkil qilish.
5. Pedagogik faoliyatni analiz-sintez hamda umumlashtirish yo‘nalishida psixologik seminarlar o‘tkazish.
6. Shaxsning kasbiy xususiyatlarini o‘zi tomonidan baholash usullarini o‘rgatib borish.
7. Zamonaviy psixologik metodlar bilan qurollantirib borish.

XULOSA

Shaxsda kasbiy so‘nish yuzaga kelgan holda uni bartaraf etish uchun pedagogik jamoa birgalikda aniq reja asosida hamjihatlik bilan faoliyatlarini tashkil etishlari

orqali mutaxassisni saflarida saqlab qolishlari mumkin. Mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda psixologni sa'iy harakatlari alohida e'tiborga loyiq xisoblanadi. Pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan kasbiy so'nishni bartaraf etish: [5]

1. Shaxs bilan individual psixologik trening va suhbatlar tashkil etish.
2. Fan sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirish uchun o'quv seminarlar tashkil etish.
3. Shaxs imkoniyatlarini o'rganish orqali tavsiya ishlab chiqish.
4. Pedagogik faoliyatda yuzaga kelgan stress, depressiya holatlarini aniqlash va individual psixologik maslahatlar ishlab chiqish.
5. Jamoaning psixologik iqlimini tahlil etish va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ijtimoiy faoliyatda har bir shaxs bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasbiy so'nish ma'lum bir vaqt oralig'ida o'tib ketish tabiiy hol hisoblanadi. Agar unga ijobjiy yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali yordam ko'rsatish mumkin. Shu sababli pedagogik soxada faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixolog pedagogik jamoadagi birorta ham pedagogni o'z nazoratidan chetda qoldirmasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: O'qituvchi, 1997. – 197 b. K.B.Qodirov
2. "Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyihalar" Toshkent, 2001. – 36 b.
3. Ушинский К. Д. Избранние педагогические сочинения/Человек как предмет воспитания.Опыт педагогик антропология (1861). — М.: Изд-во Академии наук РСФСР, 1945. — С.475.
4. Abdulakimovna, S. S. (2021). O'QITUVCHILARNING O'ZINI-O'ZI RIVOJLANISHI KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 3(10), 58-60.
5. Shakarboyeva S. BO'LAJAK O'QITUVCHIILARDA O'Z USTIDA ISHLASH
6. FAOLIYATINI TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI
7. //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – Т. 2. – №. 6.
8. Botirova D.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy - psixologik asoslari //Jurnal Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar – 2023. – Т. 2. – №. 3.
9. Маклаков А.Г. Обшая психология. Учебное пособие. СПб: Питер 2003г
- 10.Психология. Учебник. Под ред. Рогова Е.И Владос 2005г